



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



Ayron — qatiq va suvda tayyorlanadigan ichimlik.

Toshkent viloyati (Chinoz tum.)-Ayron

Farg'ona viloyati (Beshariq tum.)-Ayron

Andijon viloyati (Buloqboshi tum.)-Ayron

Jizzax viloyati (Devur tum.)-Ayron

Samarqand viloyati (Oqdaryo tum.)-Ayron

Qashqadaryo viloyati (Kitob tum.)-Chalob

Surxandaryo viloyati (Sho'rchi tum.)-Chalop

Buxoro (Jondor tum.)-Cholob

Xullas, O'zbekistonning turli viloyatlarida tayyorlanadigan milliy taomlarning nomlanishi va tayyorlanish uslublaridagi farqlar bizga mamlakatimizning madaniy xilma-xilligini va har bir hududning o'ziga xosligini namoyon etadi.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSIKA TUSHUNCHASI

Xudayberdiyeva Orifaxon Rustamjon qizi

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

orifa.xudayberdiyeva@mail.ru

ORCID: 0000-0003-3402-6586

Annotatsiya: maqolada o'zbek tilshunoslarining leksikologiya va leksika haqidagi fikrlari, tarkibiy qismlarga ajratishdagi turlicha yonashuvlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida an'anaviy va sistem leksikologiyada leksika tushunchasiga turli tomondan qarashlar va ularning qiyosiy tahlili keltiriladi. Maqolada leksikologiyaning qismlari va so'zlar qaysi xususiyatlari bo'yicha o'rganilishi ham o'rin olgan. O'zbek tili leksikasining qo'llanish doirasiga ko'ra turlari va ularga qaysi birliklarni kiritish mumkinligi haqidagi ilmiy asoslangan fikrlar ham o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: leksika, leksikologiya, leksema, so'z boyligi, semasiologiya, onomasiologiya, etimologiya, frazeologiya, so'z yasalishi, qo'llanish doirasi chegaralanmagan leksika, qo'llanish doirasi chegaralangan leksika.

Аннотация: в статье рассматриваются взгляды узбекских лингвистов на лексикологию и лексику, а также различные подходы к их структурному делению. Также приводится сравнительный анализ различных точек зрения на понятие лексики в традиционной и системной лексикологии узбекского языкознания. В статье рассматриваются разделы лексикологии и признаки, по которым изучаются слова. Кроме того, представлены научно обоснованные мнения о типах лексики узбекского языка в зависимости от сферы их употребления и о том, какие единицы можно к ним отнести.



Ключевые слова: лексика, лексикология, лексема, словарный запас, семасиология, ономасиология, этимология, фразеология, словообразование, лексика с неограниченной сферой употребления, лексика с ограниченной сферой употребления.

Abstract: the article discusses the views of Uzbek linguists on lexicology and lexicon, as well as the different approaches to dividing them into components. It also presents various perspectives on the concept of lexicon within traditional and systemic lexicology in Uzbek linguistics, along with their comparative analysis. The article includes an overview of the branches of lexicology and the characteristics by which words are studied. Scientifically grounded views on the types of vocabulary in the Uzbek language based on their sphere of usage, and the units that can be classified under them, are also presented.

Keywords: lexicon, lexicology, lexeme, vocabulary, semasiology, onomasiology, etymology, phraseology, word formation, unrestricted-use lexicon, restricted-use lexicon.

Soʻz tilning eng asosiy va markaziy birligidir. Tildagi barcha soʻzlarning yigʻindisi uning lugʻat tarkibi yoki leksikasi deb ataladi. Tilshunoslik fanining tilning leksikasini oʻrganuvchi boʻlimi leksikologiya deyiladi. Demak, leksikologiya leksikani oʻrganadi, leksika esa soʻzlardan iborat boʻladi.

Tilning leksikasini tadqiq etish juda keng soha boʻlib, u soʻzlarning hosil boʻlishi, lugʻat tarkibining boyishi va nutqda ishlatilishi, maʼnolarining oʻzgarishi, torayishi va kengayishi, turli terminlarning qoʻllanilishi kabi bir qator masalalarni qamrab oladi.

Soʻz boyligi tildagi hamma soʻzlarning oddiy yigʻindisidangina iborat emas. Tilning soʻz boyligi maʼlum qonun-qoidalarga boʻysunadigan izchil va murakkab sistemadir.

Leksikologiya quyidagi qismlarga boʻlinadi:

- zamonaviy (hozirgi) leksikologiya
- semasiologiya
- onomasiologiya
- etimologiya
- soʻz yasalishi
- frazeologiya

Leksikologiyada soʻzlar quyidagi xususiyatlar boʻyicha oʻrganiladi:

1. Soʻzning semantik strukturasi
2. Soʻzlarning shakl va maʼno munosabati.
3. Leksikadagi soʻzlarning oʻz yoki oʻzlashgan soʻz ekani.
4. Qoʻllanilishiga koʻra soʻzlarning umumiy yoki chegaralanganligi.
5. Tarixiy jihatdan oʻzbek tili leksikasi.
6. Soʻzlarning emotsional-ekspressiv boʻyoq va stilga munosabati.



Professor E.Begmatov leksikada sistemalilik xususida fikr yuritib, tilshunoslikda tilning lug'aviy boyligini ham muayyan sistema sifatida tasavvur qilish va ilmiy tasniflash usullari sifatida quyidagilarni keltiradi:

1. So'zlar so'z turkumlariga ajratish usuli, ya'ni so'z turkumlari sistemasi;
2. So'zlarni yasash modellariga ko'ra tasnif qilish usuli, ya'ni so'z yasash usullari;
3. So'zlarni funksional-stilistik guruhlariga ajratish usuli, ya'ni so'zlarning stilistik-differensial guruhlari;
4. So'zlarni ma'lum mavzu guruhlariga ajratish usuli, ya'ni so'zlarning mavzu guruhlari va boshqalar.

O'zbek tilshunosligida an'anaviy va sistem tilshunoslik nuqtai nazaridan til va nutq hodisalari, birliklariga turlicha yondashuv mavjud. Sistem tilshunoslik tilga tizim sifatida yondashadi, tizim qonuniyatlari asosida til, uning birliklari va hodisalarini talqin etadi. Nutq faoliyati mahsulida umumiylik va xususiylikni, mohiyat va hodisani, imkoniyat va voqelikni farqlaydi. Shuningdek, til va nutq hodisalarini farqlash sistem tilshunoslikda eng asosiy mezon sanaladi. Shunga ko'ra sistem tilshunoslik an'anaviy tilshunoslikdan farqlanadi. Sistem leksikologiya uchun so'zning tuzilishidagi ahamiyatli narsa ayni til birligi tayyor, umumiy, majburiymi yoki biror qolipning hosilasimi ekanligidir. Sistem leksikologiyada leksemaning eng asosiy xususiyati uning "tayyor"ligi, ya'ni yasama emasligidir. An'anaviy tilshunoslikning "tub so'zlari" va "o'zaklari" tildagi leksemalarning nutqda voqelashishining bir turidir.

Umuman, sistem leksikologiya tilning ma'lum bir davridagi barqaror (turg'un, statik, sinxronik) holatini o'rganishga xizmat qiladi. Shuning uchun til birliklarining tarixi, rivojlanishi, o'zgarishlari sistem leksikologiyada o'rganilmaydi. So'zning etimologiyasi, so'zdagi davrlar bo'yicha ma'no, qo'llanish va strukturadagi o'zgarishlar, qaysi tildan olinganligi kabi hodisalarni sistem leksikologiya tadqiq usullari bilan o'rganib bo'lmaydi.

Yakub Pinxasov leksikologiyani uch qismga bo'lib o'rganadi:

1. Leksika – ma'lum bir tilning so'z boyligini, lug'at tarkibini o'rganadi.
2. Semantika - so'zlarning ma'nosini o'rganadi.
3. Etimologiya – so'zlarning kelib chiqishini o'rganadi.

Shuningdek, olim lug'at leksik birlik (so'z boyligi) va frazeologik birlik (ibora)ni ham o'z ichiga olishini ta'kidlab, so'z boyligi bilan ibora boyligi yig'indisiga lug'aviy birliklar deyilishini yozadi. Lug'aviy birliklarni esa ikkiga bo'ladi:

1. Leksikologiya.
2. Frazeologiya.



O'zbek tili leksikasini qo'llanilish doirasiga ko'ra asosan ikki qatlamga ajratish mumkin.

1. Qo'llanish doirasi chegaralanmagan, umumiste'moldagi leksika.
2. Ma'lum doiradagina qo'llanadigan, iste'mol doirasi chegaralangan leksika.

Chegaralanmagan leksikaning ko'pgina qismi adabiy leksika tarkibiga kiradi.

Sh.Rahmatullayev leksemalarni ishlatilish doirasi jihatidan ikkiga ajratdi: ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlam va ishlatilish doirasi chegaralangan qatlam. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlamni barcha o'zbeklar uchun umumiy bo'lgan leksemalar tashkil qiladi. Bu qatlamdagi leksemalar, yashash joyi, kasbi, madaniy saviyasi, jinsi, Yoshi, va boshqa belgilaridan qat'iy nazar, o'zbekcha gapiradigan har bir kishining nutqida ishlatiladi, o'zbek tilida gapiruvchilarning barchasi uchun tushunarli bo'ladi. O'z-o'zidan, bunday leksemalar kundalik turmushda zarur narsa, belgi kabilarning nomi bo'ladi.

Turkum nuqtayi nazaridan yondashilsa, ishlatilish doirasi chegaralanmagan qatlamga butunicha yordamchilar deb nomlangan grammatik turkumlarga mansub birliklar kiritilishi lozim. Chunki, bunday birliklar o'zi ko'p emas, lekin har doim shu birliklarga murojaat qilinadi. Ikkinchidan, bunday birliklar grammatik vositalar sirasiga kiradi: leksik tomondan ko'ra grammatik tomon ustun turadi, bu hol ularning umumiy va zaruriy bo'lishini ta'minlaydi. Undovlar ham ishlatilishi doirasi jihatidan grammatik turkumlar qatoriga kiradi. Mustaqil turkumlardan son leksemalar va olmosh leksemalarning deyarli barchasi ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralanmagan. Qolgan turkumlarda (ot, sifat, fe'l, ravish, shuningdek modal birliklarda) har bir leksema alohida yondashib baholanishi kerak.

Z.Xolmonova qo'llanish doirasi jihatidan o'zbek tili leksikasini ikki turga bo'ladi:

1. Umumiste'mol leksikasi (iste'mol doirasi chegaralanmagan leksika).
2. Iste'mol doirasi chegaralangan leksika.

O'zbek tili lug'at tarkibini shu tilda so'zlashuvchilar uchun tushunarli bo'lgan va barcha o'rinlarda qo'llanadigan so'zlar tashkil etadi. Masalan: bola, osmon, chiroyli, besh, sen, bormoq, so'ramoq, tun, ertaga kabi so'zlar. O'z-o'zidan iste'mol doirasi chegaralangan leksika ya'ni dialektal leksika terminologik leksika, jargon va argolar biz amalga oshirayotgan tadqiqot uchun obyekt vazifasini o'tamaydi.

O'zbek tilshunosligidagi yuqorida ko'rib o'tilgan leksikologiya va leksika haqidagi turlicha fikrlar hozirgi bajarilayotgan va bajarilishi kerak bo'lgan tadqiqotlar uchun asos vazifasini o'taydi. O'zbek tili leksikasini darajalarga



ajratishda ham yuqoridagi xulosalar natijalaridan foydalanish mumkin. Bizningcha, an'anaviy tilshunoslik yo'nalishi o'zbek tilining iste'mol doirasi chegaralanmagan leksikasini tizimga solishda qulay, oson va tushunarli bo'lgan tadqiqot yo'llarini ko'rsatadi. Sh.rahmatullayev, Y.Pinxasov va boshqa o'zbek tilshunoslarining o'zbek tili leksikasining faol qatlamini turkumlar, mavzular bo'yicha darajalarga ajratishda ahamiyatlidir.

Adabiyot:

1. V.V. Reshetov, S.I.Ibrohimov, U.T.Tursunov, F.K.Kamolov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan, 1996.. Toshkent,
2. Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiev, I.Rasulov, X.Doniyorov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'qituvchi, 1980.
3. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. – 96 b.
4. Y.Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili (leksikologiya va frazeologiya). – T.: O'qituvchi, 1969. – 103 b.
5. N.Ne'matov. R.Rasulov. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: O'qituvchi, 1995. - 34-37 b.
6. Z.Xolmonova. Tilshunoslikka kirish. – T. – 2007. – 88 b.



<i>NUTQINI BAHOLASH PEDAGOGIK-METODIK MUAMMO SIFATIDA</i>	
<i>Ermatova Durdona Zafarjon qizi. INDUCTIVE AND DEDUCTIVE METHODS IN TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE: A COMPARATIVE PEDAGOGICAL ANALYSIS</i>	797
<i>Raxmatullayeva Ruxshona Sherzod Qizi. O'ZBEK MILLIY TAOMLARI NOMLARINING SHEVALARDAGI UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI</i>	800
<i>Xudayberdiyeva Orifaxon Rustamjon qizi. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSIKA TUSHUNCHASI</i>	803
VII SHU'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	
<i>Р.Нуёзметова. БАДИЙ АСАРДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ВА ҚАҲРАМОНЛАР ТУЙҒУЛАРИ ИФОДАЛАНИШИНИ ЎРГАНИШ</i>	809
<i>Р.Нуёзметова. O'ZBEK ADABIY TA'LIMIDA XORIJIY METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI</i>	813
<i>Исманова Акибатхан Алимжановна. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ “ЎТКАН КУНЛАР” ВА ТЎЛАГАН ҚОСИМБЭКОВНИНГ “СИНГАН ҚИЛИЧ” АСАРЛАРИДА ХОНЛИКЛАР ДАВРИНИНГ БАДИЙ ТАЛҚИНИ</i>	820
<i>Turakulova Okila Amirkulovna. TA'LIM JARAYONIDA YOSHLARIMIZNING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHIDA BADIY ASARLARNING TUTGAN O'RNI</i>	825
<i>To'uchiyeva Mahfuza Umarkulovna. TA'LIM TIZIMIDA MANTIQUIY FIKRLASHDAN FOYDALINISH MASALASI: O'TMISH VA BUGUN</i>	830
<i>Oymatova Nilufar Mirjamolovna. JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODINI O'RGANISH TAJRIBASI</i>	839
<i>Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna. ADABIY ASARNING BADIY MAZMUNINI ANGLASH YO'LLARI</i>	844
<i>Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi. MAKTAB TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</i>	852
<i>Abdixoliqova Mastona Raxim qizi. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QITISHNING INNOVATION VA PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI</i>	857
<i>Abduraxmanova Ilmira Alimjonovna. O'QITUVCHINING “SEHRLI TAYOQCHASI”: FAOLLIKNI OSHIRUVCHI METODLAR TAHLILI</i>	862
<i>Abdusattorova Dilshodabegim. ERTAKLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA ILOVALARINING O'RNI</i>	865
<i>Adashaliyeva Nigora Shuhratjonovna. ADABIY TA'LIMDA INNOVATION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	870
<i>Beknazarova Farida Matraxim qizi. 5–6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH</i>	875

